

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOVA OZODA FAXRITDINOVNA

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI ONA TILI DARSLARIDA
O‘QUV LUG‘ATLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI
(“Paronimlar o‘quv lug‘ati”dan foydalanish misolida)

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro– 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Tursunova Ozoda Faxritdinovna

Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanish metodikasi ("Paronimlar o'quv lug'ati" dan foydalanish misolida)3

Турсунова Озода Фахритдиновна

Методика использования учебных словарей в классах родного языка общеобразовательных школ (на примере использования «Учебного словаря паронимов»)..... 25

Tursunova Ozoda Faxritdinovna

Methods of Using Educational Dictionaries in the Native Language Classes of General Education Schools (on the Example of Using the "Educational Dictionary of Paronyms").....49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOVA OZODA FAXRITDINOVNA

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI ONA TILI DARSLARIDA
O‘QUV LUG‘ATLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI
(“Paronimlar o‘quv lug‘ati”dan foydalanish misolida)

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro– 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2021.3. PhD/Ped2750 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Kurbanova Gulnoz Negmatovna**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Yuldasheva Dilorom Nigmatovna**
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Ma'murov Bahodir Baxshilloevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 25 iyun soat 11³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi.

(Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14; faks: (+99865221-29-14, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (457 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+998(65)221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "8" iyun kuni tarqatildi.
(2024-yil "8" iyun dagi VI - raqamli reyestr bayonnomasi).



Y.S.Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.b. filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.I. G'aybullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

M.K. Abuzalova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashev hodisasi tilshunoslik va uning tadrijida tilga milliy madaniyat belgisi sifatida yondashuvni yuzaga keltirmoqdaki, bu til egalarining o'z ona tilidan amaliy foydalanish ehtiyojini oshirmoqda. XXI asr boshlariga kelib jahonning ko'pgina rivojlangan davlatlarida nafaqat til o'rganish, balki intellektual salohiyatga ega, yuksak ma'naviyatli, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida lug'atlar tan olinmoqda. Tilshunoslik oldiga muhim ijtimoiy buyurtma – ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish hamda o'zga tillarni tezkor o'rgatishga xizmat qiluvchi maktab lug'atlarini yaratish vazifasi qo'yilmoqda.

Dunyo lug'atchiligida yaratilgan hamda ishonchli lingvistik manbalar sifatida tan olingan turli xarakterdagi lug'atlar asosida maktab o'quv lug'atlarini yaratish an'anasi yuzaga kelgan va bu hozirda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan holda kundan kunga rivojlanib, takomillashib bormoqda. O'tgan asr boshlarida maktablar uchun didaktik vosita vazifasini o'tagan lug'at-darsliklarning o'z davrida jamiyat va mamlakat taraqqiyotiga qo'shgan muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy xizmati o'rganilib, ushbu vazifani bajara oladigan yangi tipdagi maktab lug'atlarini yaratishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu, tabiiyki, umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanish zaruratidan kelib chiqadi.

Mamlakatimizda til siyosati borasida olib borilayotgan ulkan qamrovli islohotlar nafaqat o'zbek tili taraqqiyotida muhim davr boshlanishi, balki uning ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ham yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin bo'lmoqda. O'zbek tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy, mantiqiy, obrazli, assotsiativ va kreativ fikrlay olish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki/yozma ko'rinishlarda bexato hamda ravon ifodalash uquvini rivojlantirish, mustaqil, ayni paytda, ijodiy tafakkurli, o'zgalar fikrini tez va to'g'ri ilg'aydigan – muloqot odobi hamda nutq madaniyatiga ega shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi amaliy tadqiqotlarga e'tibor kuchaymoqda. “Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o'rgatishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Toki, bolalarimiz o'zbek tilida ravon o'qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo'lib yetishsin”¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli “O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida”, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-

¹Mirziyoyev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli/ O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Xalq so'zi, 2019. – № 218.

dekabrdagi 989-sonli “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”, 2020-yil 29-yanvardagi 40-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon lingvistikasida, jumladan, rus tilshunosligida o‘quv lug‘atlarini yaratish tamoyillarini belgilash hamda ularning ilmiy asosda o‘rganilishini P.N.Denisov, V.G.Gak, L.A.Novikov, V.V.Morkovkin, S.G.Barxudarov, Y.N.Karaulov, M.A.Skopina, R.A.Budagov, N.M.Shanskiy, Z.A.Potixa, V.N.Sergeyev, A.E.Suprun, L.G.Sayaxov, L.A.Yankova, E.A.Yagovkina, U.Sh.Tursunova, T.A.Kadirbayeva, S.T.Pallekande, M.Y.Kazak² kabi tilshunos va pedagog olimlarning ishlarida kuzatamiz.

XX oxiri XXI asr boshlarida jahonning AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ukraina, Rossiya singari rivojlangan mamlakatlarida o‘quv lug‘atlarining

² Денисов П.Н. Очерки по русской лексикологии и учебной лексикографии. – Москва, 1974. – 54 с.; Денисов П.Н. Основные проблемы теории лексикографии: Автореф. дисс. ... д.ф.н. – Москва: Ин-т рус. яз., 1976. – 43 с.; Гак В.Г. Общие вопросы учебной лексикографии. – Москва: Русский язык, 1977.– 464 с.; Новиков Л.А. Учебная лексикография и её задачи. – Москва: Изд. МГУ, 1969.–112 с.; Морковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Дисс... д-ра. филол. наук. (в форме научного доклада). – Москва: Институт русского языка, 1990. – 72 с.; Морковкин В.В., Сафьян Ю.А., Степанова Е.М. и др. Лексические минимумы современного русского языка. – Москва: Русский язык, 1985. –608 с.; Бархударов С.Г., Новиков Л.А. Каким должен быть учебный словарь?// Русский язык за рубежом, 1971. – №3.; Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография (опыт теории лингвистических словарей-тезаурусов): Автореф. дисс. ... д.ф.н. – Москва: Институт русского языка, 1975. – 47 с.; Скопина М.А. Проблема отбора лексического материала в учебной лексикографии: Автореф. дисс. канд. филол. наук.– Москва, 1975. – 47 с., Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. – Москва: МГУ, 1989.–151 с.; Шанский Н.М., Быстрова Е.А. Лексико фразеологическая система и учебные словари русского языка для национальной школы.– Москва: Русский язык, 1977.– 136 с.; Потиха З.А., Розенталь Д.Э. Лингвистические словари и работа с ними в школе. – Москва: Просвещение. 1987.–128 с.; Сергеев В.Н. Словари наши друзья и помощники. – Москва: Просвещение, 1984.–143 с.; Супрун А.Е. Некоторые свойства учебного словаря и словарь для обучающего // Проблемы учебной лексикографии и обучения лексике. – Москва: Рус.яз., 1978. – С. 43-48.; Саяхова Л.Г. Лингводидактические основы описания лексико-семантической системы русского языка и учебные словари для национальной школы: Дисс... докт. педаг. наук. – Уфа, 1981.–268 с.; Янкова Л.А. Учебный словообразовательный словарь русского языка и его использование в национальной школе: на материале имени существительного: Автореф. дисс... канд. филол. наук.– Москва, 1973. –20 с.; Ягвкина Е.А. Типы лексических значений слова в русском языке и их описание в учебном толковом словаре: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 1984. –23 с.; Турсунова У.Ш. Лингводидактические основы описания многозначных слов в двуязычном учебном словаре (на материале полисемичных глаголов): Автореф. дисс... канд. филол. наук. –Москва, 1985. –17 с.; Кадырбаева Т.А. Раскрытие значения русского слова в инварианте и национальных вариантах учебного словаря: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1985. – 15 с.; Паллеканде С.Т. Принципы построения учебного тезауруса русского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук.– Москва: Изд-во ун-та Дружбы народов, 1987.– 16 с.; Казак М.Ю. Лингвистические принципы описания отсубстантивных дериватов в словаре учебного типа: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.– Москва, 1988.– 17 с.

davrga mos tiplarini yaratish, mavjud lugʻatlarni elektronlashtirishning nazariy/ amaliy jihatlari yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, oʻquv lugʻatchiligining nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etishga yoʻnaltirilgan ilmiy izlanishlar V.V.Dubichinskiy, S.V.Lebedova, I.L.Voronsova, A.I.Olxovskaya, I.Fedorov, M.A.Shaxmatov, G.A.Miller, V.Pik, K.Felbaum, A.K.Suleymanova, M.V.Trabukina, T.I.Kobyakova, I.L.Starikova, G.F.Bogacheva, I.N.Savchenkova, T.V.Jerebilo, L.A.Balobanova³ singari olimlarning tadqiqotlari eʼtiborga loyiq.

Oʻzbek tilshunosligida oʻquv lugʻatchiligining nazariy va amaliy masalalari monografik koʻlamda mustaqillikdan keyin oʻrganildi desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Jumladan, B.Mengliyev, S.Karimov, B.Yoʻldoshev, N.Uluqov, B.Bahriddinova⁴ kabilarning ishlarida ona tili – oʻzbek tilini oʻqitish vositalariga yordamchi axborot manbayi sanalgan zamonaviy lingvodidaktik lugʻatlar yaratishning ilmiy-amaliy masalalari kun tartibiga olib chiqildi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari ona tili darslari uchun “Paronimlar oʻquv lugʻati”ni yaratish va undan foydalanish metodikasi maxsus tadqiq manbayi boʻlgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat

³ Дубичинский В.В. Лексикография русского языка. – Москва: Наука: Флинта, 2008. – 432 с.; Лебедева С.В. Учебные словари различных типов в культурологическом аспекте. (На материале британских справочников): Автореф. ... канд. филол. наук. –Иваново, 2005. – 23 с.; Воронцова И.Л. Лексикографический анализ тезаурусов учебного типа. – СПб, 1997.; Ольховская А.И. Учебная лексикография в стенах института Пушкина // Русский язык за рубежом. – Москва, 2016. № 4. – С.66-72.; Федорова И. Учебная лексикография. Теория и практика / Dictionary Use. – Москва, 2006.– 128 с.; Шахматовой М.А. Учебная лексикография.– СПб.: СПбГУ, 2011.–300 с.; Miller G.A., Beckwith R., Fellbaum C., Gross D., Miller K.J. Introduction to WordNet: an on-line lexical database. –In: International Journal of Lexicography 3 (4), 1990.; Revised August 1993.; Vossen Piek. WordNet, EuroWordNet, Global WordNet. In: International conference RANLP: Recent Advances in Natural Language Processing. Tutorials.Borovetz, Bulgaria, 7-9 September, 2003.; Fellbaum Cristiane (Ed.), WordNet: An Electronic Lexical Database. The MIT Press, Cambridge, London, England, 1998.; Сулейманова А.К. Лингводидактические основы комплексного учебного тематического словаря генеративного типа (на материале терминосистемы «Бурение нефтяных и газовых скважин»): Дисс. канд.филол.наук. –Уфа, 1999. –173 с.; Тарабукина М.В. Учебный тематический словарь: типы семантических отношений: Автореф. дисс. канд. филол. наук.–Уфа, 2002. –47 с.; Кобякова Т.И. Учебный лингвокультурологический словарь “Концепты духовности русской языковой картины мира” как основа формирования концептосферы учащихся на уроках русского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. –Уфа, 2006.; Старикова И.Л. Основы построения учебных словарей сопроводительного типа: на материале “Толкового словаря школьника”. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2008.; Богачева Г.Ф. Абсолютная ценность русского слова в аспекте учебной лексикографии: Автореф. дисс. канд. филол. наук.– Москва, 2011.; Савченкова И.Н. Локально ориентированный учебный словарь русского языка для иностранцев: принципы построения и структура: Дисс ... канд. филол. наук. –Ростов-на-Дону, 2012.– 250 с.; Жеребило Т.В. Приемы обучения практической стилистике (на материале русского словообразования в IV-VII классах кабардинской школы): Дисс. канд. пед. наук. – Москва, 1988. –180 с.; Балобанова Л.А. Семантико-прагматический потенциал синтаксических фразеологизмов и их лексикографическое представление в словаре учебного типа: Дисс. ...канд. пед. наук. – Москва, 2004. – 218 с.

⁴ Менглиев Б.Р., Бахриддинова Б.М. Ўқув лугатчилиги: талаб ва эҳтиёж// «Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги масалалари». Илмий тўплам. –Т., 2009. – Б. 34-41.; Менглиев Б.Р., Бахриддинова Б.М. Ўқув лугатлири// Маърифат, 2013. – № 82.; Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг лугати. Частотали лугат. – Т.: ЎЗМЭ, 2007. – 420 б.; Йўлдошев Б. Ўзбек лингводидактикаси тараққиётида ўқув лексикографиясининг ўрни масаласига доир // НавоийДПИ ахборотномаси, 2015. –1-сон. –66-72-б.; Бахриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув лугатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.–Қарши, 2020.–254 б.

universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (2020-2025-yy.) mo'ljallangan "O'zbek tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktab ona tili mashg'ulotlarida o'quv lug'atlaridan umumli foydalanish ijtimoiy buyurtma ekanligini asoslash;

o'quv lug'atlarining asosiy vazifalari, tasnifiy belgilari, ularni yaratishning lingvopedagogik va lingvometodik asoslarini aniqlash;

o'zbek tilshunosligida paronimiya hodisasiga berilgan ta'riflarni o'quv lug'atchiligi nuqtayi nazaridan talqin qilish;

umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslari uchun "Paronimlar o'quv lug'ati"ni yaratish yo'llarini yoritish;

umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslari uchun "Paronimlar o'quv lug'ati"dan foydalanish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'rta umumta'lim maktablari ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, funksional-semantik, statistik hamda tajriba materiallarini matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

antroposentrik leksikografiyaning innovatsion an'analari hamda zamonaviy ta'lim oluvchining talablari asosida o'zbek tilida mavjud lug'atlarning megaqurilishi, korpusi (makroqurilish) va lug'at maqolasi (mikroqurilishi)ni takomillashtirishda o'quv lug'atlari uchun so'z tanlash paradigmatlarning umumiy va xususiy leksikografik semantizatsiyasi aniqlangan;

paronimik birliklarda lisoniy hodisaning nutqiy hodisaga ko'chganligi \\
o'zaro ohangdosh so'zlarning ikki tomonlama – fonetik hamda semantik munosabatlarga asoslanishi \\
komponentlarning turli semantik xarakteristikaga ega bo'lishi \\
ularning o'zakdoshligi \\
talaffuz yoki fonetik ifodadagi yaqinligi \\
o'zaro ohangdoshligi isbotlangan;

ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv lug'atlaridan muntazam foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirishda tizimlilik, izchillik, amaliy faoliyatga yo'nalganlik, ijodiy xarakterga egalik, integrallashuv, muvofiqlik, interfaollik, amaliy qiymatga egalik, estetik ta'sir xosligi hamda reflektivlik tamoyillari dalillangan;

"Paronimlar o'quv lug'ati"dan foydalanishda umumiylik-xususiylkni ta'minlash, leksemalar orasidagi sinonimik, gipero-giponimik, partonimik, graduonimik, assotsiativ kabi leksik-semantik munosabatlarni aniqlash, ularning

serqirraligini yoritib berishda foydalanuvchilar ma'lum tushunchaning qaysi guruhga aloqadorligini va u, o'z navbatida, qanday tushunchalarni qamrab olishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslari uchun "Paronimlar o'quv lug'ati"ni yaratish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha to'plangan material-xulosalar o'zbek tilini o'qitish metodikasi hamda o'zbek o'quv leksikografiyasi uchun muhim ilmiy-nazariy asos bo'lishi isbotlangan;

"O'zbek tilini o'qitish metodikasi", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Leksikografiya asoslari" kabi fanlar bo'yicha yaratilgan, yaratilajak darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik ko'rsatmalar, shuningdek, hozirgi o'quv hamda izohli lug'atlarning mukammallashuvi uchun xizmat qilishi aniqlangan;

ona tilimizdan amaliy foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish, xorijiy tillarni tezkor o'rganish, ma'nan komil, mustaqil tafakkurli, til sezgirligi rivojlangan, izlanuvchan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashga yordam beradigan "Paronimlar o'quv lug'at" ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, birlamchi ilmiy-metodik manbalarga tayanilgani, samarali hamda ishonchli tavsiflash, tasniflash, shuningdek, statistik tahlil usullari qo'llanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga tatbiq qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek o'quv lug'atchiligi nazariyasining boyishi, o'zbek tili leksikologiyasi, o'zbek tilini o'qitish metodikasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tilshunoslik, xususan, lug'atshunoslikka oid fanlarni o'qitish, "Hozirgi o'zbek tili", "Leksikografiya asoslari", "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish, ommaviy axborot vositalarida davlat tilini rivojlantirish, tildan o'rinli va unumli foydalanish madaniyatini keng yoyishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanish metodikasi ("Paronimlar o'quv lug'ati"dan foydalanish misolida) mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

antroposentrik leksikografiyaning innovatsion an'analari hamda zamonaviy ta'lim oluvchining talablari asosida o'zbek tilida mavjud lug'atlarning megaqurilishi, korpusi (makroqurilish) va lug'at maqolasi (mikroqurilishi)ni takomillashtirishda o'quv lug'atlari uchun so'z tanlash paradigmalarining umumiy va xususiy leksikografik semantizatsiyasi bilan bog'liq xulosalardan Buxoro davlat universitetida amalga oshirilgan PZ-202005236-raqamli "Oila psixologiyasi fanidan multimediya mahsulotini yaratish" (2021-2022-yy.) mavzusidagi

innovatsion tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 12-iyundagi 04/1576-son ma'lumotnomasi). Natijada didaktik ma'lumotlar bilan boyitilgan;

paronimik birliklarda lisoniy hodisaning nutqiy hodisaga ko'chganligi \\
o'zaro ohangdosh so'zlarning ikki tomonlama – fonetik hamda semantik munosabatlarga asoslanishi \\
komponentlarning turli semantik xarakteristikaga ega bo'lishi \\
ularning o'zakdoshligi \\
talaffuz yoki fonetik ifodadagi yaqinligi \\
o'zaro ohangdoshligi bilan bog'liq nazariy xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat televideniyesining "Dolzarb mavzu", "Assalom, Buxoro" teleko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 22-iyundagi 02-09141-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan;

ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv lug'atlaridan muntazam foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirishda tizimlilik, izchillik, amaliy faoliyatga yo'nalganlik, ijodiy xarakterga egalik, integrallashuv, muvofiqlik, interfaollik, amaliy qiymatga egalik, estetik ta'sir xosligi hamda refleksivlik tamoyillaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan AM-F3-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" (2020-2022-yy.) mavzusidagi amaliy grant loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 28-martdagi 04/1-759-son ma'lumotnomasi). Natijada ta'limiy korpus paronimlar o'quv lug'atlari bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminar, jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (shu jumladan, 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birgalikda dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

“Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili darslarida o‘quv lug‘atlaridan foydalanishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bob ichki uch bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limi *“Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili darslarida o‘quv lug‘atlaridan foydalanish metodik muammo sifatida”* bo‘lib, unda tahlilga tortilgan soha adabiyotlari ma’lumotlariga tayangan holda umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili darslarida foydalaniladigan o‘quv lug‘atlari tahsil oluvchilarning yosh xususiyatlariga to‘g‘ri kelishi, lingvodidaktik xarakterga ega bo‘lishi, ta’limiy maqsadga yo‘nalgan bo‘lishi, muayyan fan yoki o‘quv predmeti tarkibidagi mavzular mohiyatini chuqurroq ochishga mo‘ljallanganligi bilan boshqa lug‘atlardan ajralib turishi, maktab ona tili darslariga ilova tarzida yaratilishi, maktab o‘quvchilarining qo‘liga oson va tez yetib borishi inobatga olinishi, shuningdek, ularni doimiy yangi ma’lumotlar bilan boyitib borish imkoniyati bo‘lishi muhimligi xususida mulohaza yuritilgan.

Ikkinchi bo‘limi *“Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili darslarida o‘quv lug‘atlaridan foydalanishning hozirgi holati”* deb nomlangan. Unda bugungi globallashuv davri, internet asrida ta’lim oluvchining diqqatini jalb qilish, uning aqliy hamda jismoniy faoliyatini to‘g‘ri va maqsadli yo‘naltirish oson kechmayotganligi; axborot manbalarining haddan ortiqligi, rang-barangligi va ularning kundan kun takomillashib, ko‘lami va qamrov doirasi kengayib borayotganligi ta’lim jarayonida o‘quvchiga nihoyatda qulay va zamonaviy, e’tibortortar va kerakli, ayni paytda, oson va tez yetib boradigan usul bilan ma’lumot yetkazilishini taqozo etayotganligi; bularsiz ko‘zlangan natijaga erishish haqida o‘ylash ham mumkin bo‘lmasligiga e’tibor qaratiladi.

Davlat bosh islohotchi sifatida tilshunoslik oldiga ham (*“o‘zbek tilining asl tabiati va xususiyatini to‘la aks ettiradigan mukammal akademik va o‘quv grammatikalarini yaratish, turli mavzu va yo‘nalish bo‘yicha lug‘at va qomus, risola va darslik yaratish”*⁵) ona tili o‘qitish zimmasiga ham (*“o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgarlar fikrini anglaydigan – mulqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish”*) navbatdagi vazifalarni qo‘ydi. Maktabda ona tili o‘qitilishining asosiy maqsadi – o‘quvchining ijodiy, mantiqiy, kreativ, obrazli va assosiativ tafakkur qilish, tafakkur mahsulini og‘zaki va yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon ifodalash kompetensiyalarini rivojlantirish deb belgilandi. Uzluksiz ta’limning quyi bo‘g‘inlarida ta’lim oldiga qo‘yilgan Davlat talablaridan ko‘rinib turibdiki, ayni paytda mamlakatimizda til siyosati borasida yangi davr boshlandi.

O‘zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalaridan biri o‘quv lug‘atlarini tuzish, keng ommalashtirish bo‘lsa, o‘qituvchilar oldida, o‘quvchi, talaba, maorif va madaniyat xodimlarida hayot hamda faoliyatlarining birinchi kundan boshlaboq lug‘atlardan keng va ommaviy ravishda foydalanish madaniyatini

⁵Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги фармони. 2016 йил 13 май <https://lex.uz>

shakllantirish vazifasi turadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z ma‘ruzalarida ta‘kidlaganlaridek: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta‘lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi⁶”, demak, zimmamizda bu borada ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarimizda ham, o‘qituvchilarimizda ham o‘quv lug‘atlaridan foydalanishga ehtiyoj ruhini singdirish mas‘uliyati turadi. Maktab o‘quvchilari uchun bunday lug‘atlar yaratilmagan yoki yaratilganlari ham keng ommalashtirilmagan ekan, deb bu muhim ishni o‘z holiga tashlab qo‘yib ham bo‘lmaydi.

Tahlillar ko‘rsatadiki, respublikamizda o‘quv lug‘atlarining yaratilishi hamda mavjud o‘quv lug‘atlaridan o‘rta umumta‘lim maktablari ona tili darslarida foydalanishning hozirgi holatini qoniqarli deb baholash mushkul.

Bobning uchinchi bo‘limi *“Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari ona tili darslarida o‘quv lug‘atlaridan foydalanish zarurati”* muammolarini qamrab olgan. Unda o‘quv lug‘ati o‘quvchiga tilni shunchaki o‘rgatish vazifasinigina bajarmasligi, undan professional darajada foydalanish ko‘nikmasini hosil qilishga ham ko‘maklashishi ta‘kidlanib, o‘quv lug‘atlariga va o‘quv lug‘atchiligiga ta‘limning muayyan tizimiga mansub o‘quvchining ongida olamning lisoniy manzarasini aks ettirish va tildan amalda foydalanish kompetensiyasini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, ma‘lumotni tezkor va qulay taqdim etadigan o‘qitish vositasi sifatida yondashish zarurligi xususida mulohaza yuritiladi.

Bugun nafaqat o‘quv lug‘atlarining bosma variantlarini yaratish, balki ularning oflayn yoki onlayn tartibda ishlashga mo‘ljallangan elektron shakllarini yaratib keng amaliyotga tatbiq etish masalasini ham hal etish lozim. Shuningdek,

1) antroposentrik leksikografiyaning innovatsion leksikografik an‘analari hamda zamonaviy ta‘lim oluvchining talablari asosida o‘zbek tilida mavjud lug‘atlarning megaqurilishi, korpusi (makroqurilish) va lug‘at maqolasi (mikroqurilishi)ni takomillashtirish, o‘quv lug‘atlari uchun so‘z tanlash, lug‘at mohiyatidan kelib chiqib muayyan paradigmalarining umumiy va xususiy leksikografik semantizatsiyasi bilan bog‘liq nazariy muammolar hamda lug‘at tuzish jarayoni bilan aloqador texnologik muammolarni yechish;

2) mavjud bosma o‘quv lug‘atlarini axborot texnologiyalarining funksional imkoniyatlaridan foydalangan holda elektronlashtirish – turli elektron qurilmalarda oflayn yoki onlayn tartibda ishlashga mo‘ljallangan elektron o‘quv lug‘atlarini tuzish;

3) turli xalqaro onlayn lug‘atlar bazalarida (wikilug‘at, Lingvo, synset kabi), xususan, o‘zbek tili milliy korpusi, ta‘limiy korpuslarning o‘quv lug‘atlari bazasi lingvistik ta‘minotini yaratish va unda lug‘at so‘zlarining leksik-semantik razmetkalash tamoyillarini ishlab chiqish;

4) o‘quv lug‘atlari uchun so‘z tanlash, ularga izoh berishda milliy g‘oyamiz, madaniyatimiz, an‘ana va qadriyatlarimiz ruhini singdirish, ya‘ni ularni tarjima qilish yo‘li bilan yaratilishiga chek qo‘yilishi zarur.

⁶ <https://yuz.uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi> 30-oktabr 2020-yil

Dissertatsiyaning “**Paronimlar o‘quv lug‘ati va undan foydalanish metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobi birinchi bo‘limida “*Paronimlik fenomeni va uning terminologik talqini muammolari*”ga e‘tibor qaratilgan.

O‘zbek tili leksikologiyasining hozirgi asosiy tadqiq ishlaridan biri, hech shubhasiz, so‘z ichki va tashqi tomonlarining o‘zaro munosabati hamda ta’sirini aniqlash bilan bog‘liq. Bu masala bilan bevosita aloqador hodisalar qatorida sinonimiya, omonimiya, antonimiya, polisemiya, variantlilik va paronimiya bor. Keyingi ikki leksik-semantik kategoriya o‘zbek tilshunosligida keng asosda maxsus o‘rganilmagan, paronimiya esa umumtilshunoslikda ham hozirga qadar juda kam yoritilgan soha bo‘lib qolmoqda.

Paronimlar (para... va yunoncha onyma – ism, nom) – talaffuzi, eshitilishi va morfem tarkibi o‘xshash, leksik ma’nolari boshqa-boshqa yoki qisman yaqin bo‘lgan so‘zlar⁷. Nutqda ana shunday tarkiban o‘xshash so‘zlarning mavjud bo‘lish hodisasi paronimiya deyiladi. Paronimiya muammosi nutqda paronimlarni ataylab yaqinlashtirish yoki ularning ma’nolarini bilib/bilmay, farqlamay adashtirib ishlatish natijasida kelib chiqadi va nutqiy g‘alazlikni yuzaga keltiradi. Odatda, nutq madaniyati va uslubshunoslik sohalari paronimlarni to‘g‘ri qo‘llash bilan aloqador masalalarni maxsus o‘rganadi.

Paronimlar lisoniy hodisa emas. Nutqiy bosqichda paronimik juftliklarni farqlamasdan qo‘llash (ya’ni birining o‘rnida ikkinchisini ishlatish), ularni chalkashtirish (adashtirib yuborish), aslida, muayyan nutq egalarining shu til leksik me’yorlarini yetarli darajada egallamaganligi, shuningdek, so‘z ma’nolarini farqlay olmasligi, o‘z nutqiga befarqligi natijasida ro‘y beradi.

Paronimlar ichki tabiati va o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir necha lingvistik hodisalarga (masalan, variatsiya, ya’ni variantlilik hodisasiga, omofon, omograf, omoformalarga) yaqin turishi tahlilga tortilgan. Tilshunoslikda mazkur hodisalarning chegarasi uzil-kesil hal etilmaganligi bois turli darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ularning talqinlarida chalkashliklar borligi ko‘rsatilgan.

Ushbu bo‘limning xulosasi sifatida aytish mumkinki, paronimlarning chegarasini belgilashda ko‘pchilik olimlar 1) komponentlarning turli semantik xarakteristikaga ega bo‘lishi, 2) paronimlarning o‘zakdoshligi va 3) ularning talaffuz yoki fonetik ifodadagi yaqinligi, o‘zaro ohangdoshligi kabilarni hisobga oladi, ayrimlari esa yo‘q. Natijada, mazkur mavzu mohiyatini yoritishda har xilliklar borligini kuzatamiz.

Fikrimizcha, paronimlarni ta’riflashda ularning chegarasini belgilashda quyidagilar inobatga olinishi muhim: 1. Nutqimizdagi fonetik ifodasi juda yaqin so‘zlarning talaffuzi bilib/bilmay aralashtirilishi paronimiya hodisasi sifatida baholanishi; 2. Paronimik birliklarning yuzaga kelishi talaffuz bilan bog‘liqligi inobatga olinib ular nutqiy hodisa sifatida e’tirof etilishi; 3. Paronimik birliklarning mohiyati o‘zaro ohangdosh so‘zlarning ikki tomonlama – fonetik hamda semantik munosabatlarga asoslanishi; 4. Paronim komponentlarining har biri turli semantik

⁷ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Paronimlar>

xarakteristikaga ega bo'lishi; 5. Paronim komponentlari tub, yasama, o'zakdosh yoki alohida ko'rinishda bo'lishi mumkinligi; 6. Paronimlarni chuqur o'rganish o'quvchida nutq madaniyatining yuksalishiga xizmat qilishi alohida e'tiborga olinishi zarur.

Bobning keyingi bo'limi "*Paronimlar o'quv lug'ati*"ni tuzishning o'ziga xos tamoyillari" deb nomlangan bo'lib, unda ona tilidan «ko'proq «tayyor osh»– darslik bilan ishlashni taqozo etadigan, ta'lim oluvchida ergashuvchanlik, bo'ysunuvchanlik, idrokiy yalqovlik hissini qaror toptirish va rivojlantirishga olib keladigan» retroskopik ta'lim usulidan voz kechilganligi; bugungi kreativ fikrlaydigan ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish maqsadini ko'zlagan kognitiv-induktiv-pragmatik ta'lim usuli o'qituvchi ta'lim jarayonida mumkin qadar darslikdan ko'proq uzilishi hamda «Axborot banki»dan foydalanishi zarurligini taqozo etayotganligi tahlilga tortilgan.

Lug'at – davr mahsuli, xalq tarixidagi muayyan davrning ko'zgusi. Uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy-madaniy sharoit, nazariy va amaliy tilshunoslikning holati, lug'atlarga ehtiyoji bo'lgan turli sohalar taraqqiyoti va yana ko'pgina jihatlariga bog'liq. Muayyan tilda davrga aloqador turli omillarga bog'liq ravishda lug'atlarning rang-barang ko'rinishlarining yuzaga kelishi, umuman, lug'atchilik taraqqiyoti – til va uning egasi bo'lgan millatning taraqqiyoti bilan bog'liq, uning porloq kelajagi haqida gapirish imkonini beradi.

"Paronimlar o'quv lug'ati"ni tuzishning o'ziga xos tamoyillari quyidagilar:

"Paronimlar o'quv lug'ati" ideografik xarakterda bo'lishi: Paronimlarni ideografik nuqtayi nazardan o'rganishning asosiy maqsadi paronim komponenti tarkibidagi har bir leksik birlikning turli ma'nolarini bus-butun, yaxlitligicha o'rganish va ularni o'z o'rnida qo'llashni o'rgatishdan iborat. Masalan, lug'atdan foydalanuvchilar uchun *adib–adip, adil–adl, asr–asir* kabi paronimlarni alohida o'rganib mag'zini chaqishidan ko'ra ushbu so'zlarni ma'lum bir tematik guruhga jamlab, qiyoslab o'rganish ancha qulay va osonroq kechadi. Chunki turli tematik guruhlarga jamlangan so'zlarni (masalan, *adib–adip, adil–adl, asr–asir* yoki *abzal–afzal*) tartibsiz o'rganish o'quvchini chalg'itishi va o'zlashtirish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Shuning uchun ma'lum bir bog'liqlik yoki o'xshashlik (umumiylig)ka asoslangan tematik guruh va tematik maydonlar nuqtayi nazaridan til leksikasini o'rganish samarali natijalar berishi tayin. Shuningdek, ideografik lug'at bitta paronimning ma'nosini ilg'ash uchun ta'lim oluvchini bir necha lug'atlarga murojaat etib ovora bo'lishdan va ortiqcha vaqt sarflashdan saqlaydi.

"Paronimlar o'quv lug'ati"ni alifbo tartibida ifodalash: Xo'sh, paronim so'zlar lug'atda qaysi tamoyil asosida joylashmog'i lozim? Til – sistema, u ongimizda ham shu tartibda o'z aksini topgan. Alifbo tartibida tuzilgan lug'atlarning afzalligi haqidagi to'xtalishga hojat yo'q. Lekin alifbo tartibidagi lug'at so'zlar va bizning olam haqidagi sistema asosida birlashgan bilimlarimizga to'g'ri proporsional emas. Ammo maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan

lugʻatda tushunchalar, meʼyoriy koʻrinishda, mazmuniy maydonlar doirasida emas, alifbo tartibi boʻyicha berilishi lozim. Bu usul oʻquvchilarni tayyor materialdan foydalanishga, shuningdek, mustaqil izlanishga, fikr yuritishga, izohlash va xulosalar chiqarishga oʻrgatishda qoʻl keladi.

“Paronimlar oʻquv lugʻati”ni tuzishda nazariya va amaliyot uygʻunligini taʼminlash. Paronimlarning izohli lugʻatida berilayotgan materiallar oʻzbek tilshunosligida erishilgan yutuqlarga har tomonlama mos kelishi, xususan, paronimiya nazariyasining amaliyotdagi koʻrinishi boʻlmogʻi zarur.

Bu borada ham Yevropa oʻquv lugʻatchiligining boy tajribasiga (masalan, oʻquv lugʻatlarining zamonaviy avlodlarini yaratish, mavjud lugʻatlarni elektronlashtirishning nazariy/amaliy masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan V.V.Dubichinskiy, S.V.Lebedova, I.L.Voroncova, E.Y.Balalayeva, A.I.Olxovskaya, I.Fedorov, M.A.Shaxmatov, G.A.Miller, V.Pik, K.Felbaum, K.Petrova va b.lar), ham milliy lugʻatchiligimiz borasida olib borilgan tadqiqotlar (masalan, B.Bahriddinova, Z.Rahmatova, Z.Rajabova va b.lar) natijasiga tayanmogʻimiz zarur.

“Paronimlar oʻquv lugʻati”ni tuzishda ilmiylikni taʼminlash. Paronimlarning oʻquv izohli lugʻatida keyingi 10-15 yil ichida oʻzbek tilshunosligida keng rivojlangan antroposentrik yoʻnalish oʻz aksini topgan boʻlishi zarur. Ernest Begmatovning uqtirishicha: «Oʻzbek tilining mustaqillik davri rivoji va uning lisoniy meʼyorlarini belgilash tajribalari shuni koʻrsatadiki, tilning ijtimoiy hayoti, amaliyotiga kishilarning aralashishi, uni ongli ravishda boshqarish ishi ilmiy asoslangan boʻlishi, uning nazariy tamoyillari, qoidalari ishlab chiqilishi, bu masalada ortiqcha hissiyotga, soxta tilsevarlikka berilmaslik lozim».

“Paronimlar oʻquv lugʻati”ni tuzishda taʼlimiylikni taʼminlash. Lugʻatlarning aksariyati oʻquv xarakterida boʻladi. Haqiqatan, oʻquv lugʻatlari oʻqish-oʻqitish maqsadi bilan tuziladi, talabalar yoki maktab oʻquvchilari uchun moʻljallanadi. Bunday lugʻatlar tanlangan leksik materialning hajmi, tanlash yoʻli, muayyan oʻquv dasturini nazarda tutishi, oʻquvchi kitobxonlarning bilim darajasini hisobga olishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Garchi, tematik oʻquv lugʻatlarida ham taʼlimiylik tamoyili (yaʼni taʼlim berishga va taʼlim olishga moslik) taʼminlangan boʻlsa-da, ular ideografik lugʻatlar darajasida samara berishi qiyin. Zero, tematik va ideografik lugʻatlar orasida quyidagi farqlar mavjud:

1) tematik lugʻatlar mavzuviy guruhlar asosida tarkib topgan boʻlib, til leksikasi mana shu guruhlar boʻyicha tasnif etiladi, shu guruhlariga birlashadi;

2) ideografik (tezaurus) lugʻatda esa muayyan soʻz, masalan, paronimik birlikka xos maʼno(tushuncha)ning vazifadoshlari, maʼnodoshlari, antonimlari, predikativ aloqa hosil qiluvchi (feʼl) soʻzlari bir guruhda birlashadi.

“Paronimlar oʻquv lugʻati”ni tuzishda umumiylik-xususiylikni taʼminlash. Lugʻat tuzishda umumiylik-xususiylik dialektikasiga tayanib ish koʻrish lozim. Mazkur usulda leksemalar orasidagi sinonimik, gipero-giponimik, partonimik,

graduonimik, assotsiativ kabi munosabatlar aniqlanadi, bu tushunchaning serqirraligini yoritib berishda yordam beradi. Lug‘atdan foydalanuvchilar ma’lum tushunchaning qaysi guruhga aloqadorligini va u, o‘z navbatida, qanday tushunchalarni qamrab olishini osongina anglab yetadi.

“Paronimlar o‘quv lug‘ati”ni tuzishda izohsiz izoh chiqarishni ta’minlash. Paronimik izohli lug‘atda berilayotgan leksemalar sodda va tushunarli bo‘lishi talab etiladi. Masalan, lug‘atdan foydalanuvchi adl so‘zi “adolat”, “to‘g‘rilik”, “odillik” semalari borligini oson anglab yetishi zarur. Ushbu *kuch, qudrat, peshvo, tarafdor* kabi leksemalar bilan ma’noviy birikishi natijasida alohida ijobiy tushuncha maydonini hosil qilishi (adl kuchi, adl qudrati, adl peshvolari, adl tarafdorlari), ikkinchi tomondan “haqsizlik” semasi bilan jaholat, johillik, adolatsizlik, bedodlik ko‘rinishidagi semantik qatorni hosil qilishini anglab yetishi va shuning yordamida izohsiz izoh chiqara bilishi kerak.

“Paronimlar o‘quv lug‘ati”ni tuzishda izchillikni ta’minlash. Paronimlarning izohli lug‘atida tushuncha maydonlari ichida keltirilayotgan so‘zlar bir-biriga aralashib ketmasligi, ma’lum assotsiatsiyalar asosida aniq bir reja ostida birikishi darkor.

“Paronimlar o‘quv lug‘ati”ning elektron interaktiv shaklini ta’minlash. Elektron interaktiv lug‘at – kompyuter yoki boshqa elektron qurilma, masalan, kengaygan funksiyali mobil telefonlar (smartfon), Apple iOS (Apple iPhone, iPod touch) bazasiga oid mobil qurilmalar va boshqa qurilmalarda ishlash uchun mo‘ljallanadiki, ta’lim oluvchining undan foydalanishi juda qulay bo‘ladi.

“Paronimlar o‘quv lug‘ati”ni korpus lug‘atlari darajasida tuzilishini ta’minlash. O‘zbek milliy korpusi “tetapoya” bo‘layotgan ayni paytda “Paronimlar o‘quv lug‘ati”ni korpus lug‘atlari darajasida tuzilishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Korpus lingvistikasi XX asrning 90-yillarida tilshunoslikning alohida sohasi sifatida ajralib chiqdi. Korpus murakkab lisoniy butunlik sifatida o‘zida nutqiy/lisoniy manbaning tarkibiga doir keng hajmli axborotni saqlabgina qolmay, shu axborotni taqdim etishning formal usullari (so‘zlarni indeksatsiyalash, morfologik ma’lumot va b.)ni ham jamlab berishi bilan e’tiborli.

Ishning “*Maktab ona tili darslarida “Paronimlar o‘quv lug‘ati”dan foydalanish metodlari*” deb nomlangan qismi metodik xarakterda bo‘lib, unda 5-11-sinf ona tili mashg‘ulotlarida “Paronimlar o‘quv lug‘ati”dan foydalanish metodlari ishlab chiqilgan. Masalan,

1-topshiriq. Berilgan paronimik juftliklar asosida gaplar tuzing.

Otalik–otaliq, dafina–dafna, yod–yot, jazlik–jazliq, juda–judo, ijobiy–ijodiy, yo‘ymoq–yoymoq, kavsh–kovsh

2-topshiriq. Paronimik juftliklar sirasida sizga notanish bo‘lgan so‘zning ma’nosini lug‘atdan izlang.

3-topshiriq. ”Tutuq belgisini tushirib qoldirsak” o‘yin-topshirig‘ini bajaring. (Berilgan paronim so‘zlar tarkibidan tutuq belgisini tushirib qoldiring va hosil bo‘lgan so‘z ma’nosini jadvalga joylashtiring.)

№	Paronim soʻz	Paronim soʻz	
1	aʻyon	ayon	
2	aʻlam	alam	
3	daʻvo	davo	
4	baʻd	bad	
5	zaʻfar	zafar	
6	maʻtal	matal	
	saʻva	sava	
8	talʻat	talat	

4-topshiriq. Jadvalda berilganlar asosida gaplar tuzing.

5-topshiriq. Javoblaringizni “Paronimlar oʻquv lugʻati”da berilganlar bilan solishtiring.

6-topshiriq. **-li** hamda **-lik**, shuningdek, **-lik** hamda **-liq** bilan yasalgan va paronimik juftlikni yuzaga keltirgan soʻzlarni imlo lugʻatidan izlab toping.

Masalan, bolali – bolalik...

7-topshiriq. -li hamda -lik, shuningdek, -lik hamda -liq bilan yasalgan va paronimik juftlikni yuzaga keltirgan soʻzlarning grammatik hamda lugʻaviy maʼnolarini daftaringizga yozing.

Masalan, kiyimli (sifat; libosi bor yoki kiyim kiygan) – kiyimlik (ot; libos yoki kiyim uchun mos (mato))...

8-topshiriq. -li hamda -lik, shuningdek, -lik hamda -liq bilan yasalgan va paronimik juftlikni yuzaga keltirgan soʻzlar asosida yigʻiq va yoyiq gaplar tuzing.

9-topshiriq. -li hamda -lik, shuningdek, -lik hamda -liq bilan yasalgan va paronimik juftlikni yuzaga keltirgan soʻzlar asosida sodda va qoʻshma gaplar tuzing.

10-topshiriq. Javoblaringizni “Paronimlar oʻquv lugʻati”dan tekshiring.

Maktab ona tili mashgʻulotlarida tez-tez paronimlar mavzusiga murojaat etish oʻquvchilar uchun moʻljallangan «Paronimlarning izohli oʻquv lugʻati»ni taqozo etadi. Bu borada «Paronimlarning izohli oʻquv lugʻati» ideografik xarakterda boʻlishi davr talablariga mos keladi. Zero, maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan «Paronimlarning izohli oʻquv lugʻati» leksikografik tavsif bilan chegaralanib qolmasdan paronimlarga yondosh hodisalar haqida, paronimlarning morfologik, sintaktik xususiyatlari toʻgʻrisida ham maʼlumot yetkazishi, shuningdek, leksik-semantik qidiruvlarda tushuncha bilan bogʻliq yangi material bera olishi bilan eʼtiborlidir.

Maktab ona tili darslarida «Paronimlarning izohli oʻquv lugʻati»dan foydalanish metodlari (“Paronimdan sinonimga”, “Paronimlar orqali soʻz oʻyini”, “Paronimlarsiz talaffuz va maʼno”, “Paronimik juftliklar soʻzlaganda”, “Paronimning juftini top” va b.) koʻp va rang-barangdir, degan xulosa beriladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Umumiy oʻrta taʼlim maktablari ona tili darslarida oʻquv lugʻatlaridan foydalanish samaradorligi**” deb nomlanib, unda

pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlili keltirilgan.

